**Abstract.** This article analyzes the theoretical and practical aspects of developing cooperation between FinTech companies and commercial banks in the financial market of Uzbekistan. The study examines the role of FinTech technologies in the innovative development of the banking sector in the context of digital transformation, their impact on economic efficiency, and institutional mechanisms of cooperation. Also, based on international experience, directions for strengthening bank–FinTech integration were identified and strategic proposals suitable for the conditions of Uzbekistan were developed. The results of the study will serve to improve the quality of digital services in the financial sector, expand customer-oriented services, and strengthen the competitiveness of the banking system.

**Key words:** FinTech, digital transformation, banking system, financial market, innovation, digital banking services, cooperation model, ecosystem, API, open banking, startups.

**Аннотация.** В данной статье анализируются теоретические и практические аспекты развития сотрудничества между финтех-компаниями и коммерческими банками на финансовом рынке Узбекистана. Исследование рассматривает роль финтех-технологий в инновационном развитии банковского сектора в контексте цифровой трансформации, их влияние на экономическую эффективность и институциональные механизмы сотрудничества. Также, на основе международного опыта, определены направления усиления интеграции банков и финтех-компаний и разработаны стратегические предложения, адаптированные к условиям Узбекистана. Результаты исследования будут способствовать повышению качества цифровых услуг в финансовом секторе, расширению клиентоориентированных услуг и укреплению конкурентоспособности банковской системы.

**Ключевые слова:** финтех, цифровая трансформация, банковская система, финансовый рынок, инновации, цифровые банковские услуги, модель сотрудничества, экосистема, API, открытый банкинг, стартапы.

## KIRISH

O'zbekistonda iqtisodiyotni liberallashtirish, moliya tizimini modernizatsiya qilish va raqamli iqtisodiyotni shakllantirish yo'nalishida keng ko'lamli islohotlar amalga oshirilmoqda. Xususan, bank-moliya sektorini transformatsiya qilish, zamonaviy moliyaviy xizmatlarni joriy etish hamda aholining moliyaviy xizmatlardan foydalanish imkoniyatlarini kengaytirish davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri sifatida belgilangan.

"Raqamli O'zbekiston – 2030" strategiyasi, bank tizimini isloh qilishga qaratilgan konseptual hujjatlar hamda moliya bozorini rivojlantirish dasturlari asosida tijorat banklari faoliyatida raqamli texnologiyalarni keng joriy etish, masofaviy xizmatlar ulushini oshirish va innovatsion moliyaviy mahsulotlarni yaratish bo'yicha muhim natijalarga erishilmoqda. Shu jarayonda FinTech kompaniyalari moliya xizmatlari bozoriga yangi innovatsion



yechimlar olib kirib, bank tizimi bilan o'zaro integratsiyani kuchaytiruvchi muhim subyekt sifatida maydonga chiqmoqda.

O'zbekistonda amalga oshirilayotgan islohotlar natijasida FinTech rivoji uchun qulay institutsional muhit shakllanib bormoqda. Xususan, to'lov tizimlarini rivojlantirish, elektron tijoratni qo'llab-quvvatlash, masofaviy identifikatsiya mexanizmlarini joriy etish hamda raqamli infratuzilmani kengaytirish bo'yicha amalga oshirilayotgan chora-tadbirlar FinTech kompaniyalari faoliyatini jadallashtirishga xizmat qilmoqda. Bu esa o'z navbatida banklar bilan hamkorlik qilish uchun yangi imkoniyatlarni yaratmoqda.

Shu bilan birga, mamlakatda ochiq bank tizimi (open banking), API texnologiyalari, mobil va onlayn bank xizmatlari kabi yo'nalishlarning bosqichma-bosqich joriy etilishi bank va FinTech subyektlari o'rtasidagi integratsiyani kuchaytirish uchun muhim asos bo'lib xizmat qilmoqda. Ayniqsa, raqamli to'lovlar hajmining keskin oshishi, elektron hamyonlar va fintech startaplarning paydo bo'lishi moliya bozorining yangi bosqichga o'tayotganini ko'rsatadi.

Biroq, mavjud imkoniyatlar bilan bir qatorda, banklar va FinTech kompaniyalari o'rtasidagi hamkorlikni to'liq yo'lga qo'yish uchun ayrim tizimli muammolar ham mavjud. Jumladan, normativ-huquqiy bazaning ayrim jihatlari takomillashtirilishi zarurligi, texnologik integratsiya darajasining yetarli emasligi hamda innovatsion loyihalarni moliyalashtirish mexanizmlarining cheklanganligi ushbu sohada hal etilishi lozim bo'lgan masalalar sirasiga kiradi.

O'zbekiston moliya bozorida FinTech kompaniyalari va tijorat banklari o'rtasidagi samarali hamkorlikni yo'lga qo'yish, mavjud imkoniyatlardan to'liq foydalanish hamda ularning o'zaro integratsiyasini chuqurlashtirish dolzarb ilmiy-amaliy vazifa hisoblanadi. Mazkur maqolada aynan ushbu yo'nalishning nazariy asoslari, amaliy holati va rivojlantirish strategiyalari kompleks tarzda tahlil qilinadi.

## MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Moliya bozorida FinTech kompaniyalari va banklar o'rtasidagi hamkorlik masalasi so'nggi yillarda iqtisodiy adabiyotlarda keng o'rganilayotgan dolzarb yo'nalishlardan biri hisoblanadi. Ushbu jarayon, ayniqsa, raqamli transformatsiya sharoitida moliyaviy xizmatlar sifatini oshirish, innovatsiyalarni joriy etish va moliyaviy inklyuziyani kengaytirish bilan chambarchas bog'liq holda tahlil qilinmoqda.

Xorijiy ilmiy tadqiqotlarda FinTech tushunchasi moliyaviy xizmatlar ko'rsatishda zamonaviy texnologiyalardan foydalanishga asoslangan innovatsion model sifatida talqin etiladi. Ko'plab olimlar FinTech kompaniyalarini bank tizimining raqobatchisi sifatida emas, balki uning strategik hamkori sifatida baholaydilar. Jumladan, ayrim tadqiqotlarda FinTech va banklar o'rtasidagi hamkorlik xizmatlar tezligini oshirish, operatsion xarajatlarni kamaytirish va mijozlarga yo'naltirilgan yangi mahsulotlarni yaratishda muhim omil ekanligi asoslab berilgan.

Ilmiy manbalarda bank va FinTech o'rtasidagi o'zaro aloqalar turli modellarda ko'rib chiqiladi. Xususan, integratsiya modeli bank infratuzilmasiga FinTech texnologiyalarini joriy etishga asoslangan bo'lsa, hamkorlik modeli o'zaro manfaatli sheriklik asosida xizmat ko'rsatishni nazarda tutadi. Shuningdek, platformaviy modelda yagona raqamli ekotizim shakllantiriladi, bu esa barcha moliyaviy xizmatlarni bir platformada jamlash imkonini beradi. Ayrim tadqiqotchilar tomonidan esa FinTech kompaniyalari bank tizimiga muqobil xizmat ko'rsatuvchi subyekt sifatida ham talqin qilinadi.

Xalqaro tajribani o'rganish shuni ko'rsatadiki, rivojlangan mamlakatlarda banklar va FinTech kompaniyalari o'rtasidagi hamkorlik ochiq bank tizimi (open banking) konsepsiyasi asosida yo'lga qo'yilgan. Ushbu modelda API texnologiyalari orqali bank ma'lumotlari uchinchi tomonlar uchun ochiq bo'ladi va bu yangi innovatsion xizmatlarni yaratishga xizmat qiladi. Shu bilan birga, sandbox (sinov muhiti) tizimi orqali yangi moliyaviy texnologiyalarni xavfsiz sharoitda sinovdan o'tkazish amaliyoti keng qo'llanilmoqda.

Ba'zi ilmiy ishlarda FinTech kompaniyalarining moliyaviy inklyuziyani ta'minlashdagi roli alohida ta'kidlanadi. Ayniqsa, an'anaviy bank xizmatlaridan foydalana olmaydigan aholi qatlamlari uchun mobil to'lovlar, mikroqarzlash va raqamli hamyonlar orqali qulay imkoniyatlar yaratilayotgani asoslab berilgan. Shu jihatdan, FinTech texnologiyalari ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishga ham sezilarli ta'sir ko'rsatmoqda.

Mahalliy olimlar tomonidan olib borilgan tadqiqotlarda O'zbekistonda bank tizimini raqamlashtirish, to'lov tizimlarini modernizatsiya qilish va masofaviy xizmatlarni rivojlantirish masalalari keng yoritilgan. Xususan, so'nggi yillarda mobil banking, internet banking, QR-to'lovlar va elektron hamyonlar kabi xizmatlarning joriy etilishi bank tizimining samaradorligini oshirishga xizmat qilayotgani ta'kidlanadi. Biroq, FinTech kompaniyalari bilan banklar o'rtasidagi hamkorlik masalalari yetarli darajada chuqur o'rganilmaganligi, ayniqsa institutsional va strategik yondashuvlar nuqtai nazaridan ilmiy izlanishlar yetishmasligi kuzatiladi.

Shuningdek, ayrim tadqiqotlarda O'zbekiston moliya bozorida FinTech ekotizimini rivojlantirish uchun normativ-huquqiy bazani takomillashtirish, innovatsion infratuzilmani kengaytirish va investitsion muhitni yaxshilash zarurligi qayd etilgan. Bu esa bank va FinTech kompaniyalari o'rtasidagi samarali hamkorlikni yo'lga qo'yishda muhim ahamiyat kasb etadi.



Yuqoridagi ilmiy yondashuvlar tahlili shuni ko'rsatadiki, bank va FinTech kompaniyalari o'rtasidagi hamkorlikni rivojlantirish masalasi kompleks yondashuvni talab qiladi. Shu bilan birga, mavjud ilmiy tadqiqotlarda O'zbekiston sharoitida ushbu hamkorlikni rivojlantirishning aniq strategik mexanizmlari yetarli darajada ishlab chiqilmagan. Mazkur holat esa ushbu mavzuning ilmiy yangiligi va amaliy ahamiyatini yanada oshiradi.

## TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqotda O'zbekiston moliya bozorida FinTech kompaniyalari va tijorat banklari o'rtasidagi hamkorlikni rivojlantirish jarayonlarini kompleks o'rganish maqsadida zamonaviy ilmiy yondashuvlar va usullar majmuasidan foydalanildi. Tadqiqot metodologiyasi nazariy, empirik va iqtisodiy-statistik tahlil usullarini o'z ichiga oladi.

Tadqiqotning nazariy-metodologik asosini moliya bozori rivoji, raqamli transformatsiya, innovatsion iqtisodiyot va FinTech texnologiyalari sohasidagi xorijiy va mahalliy olimlarning ilmiy ishlari tashkil etadi. Shuningdek, bank va FinTech kompaniyalari o'rtasidagi hamkorlik modellarini yorituvchi konseptual yondashuvlar asos qilib olindi.

- a. Tadqiqot jarayonida quyidagi asosiy ilmiy usullardan foydalanildi:
- b. Tizimli tahlil usuli – bank va FinTech kompaniyalari o'rtasidagi hamkorlikni yagona tizim sifatida o'rganish, ularning o'zaro bog'liqligini aniqlashda qo'llanildi.
- c. Taqqoslama tahlil usuli – rivojlangan davlatlar tajribasi bilan O'zbekiston moliya bozorida holatni solishtirish orqali samarali modellari aniqlab olindi.
- d. Statistik tahlil usuli – moliya bozori, bank xizmatlari va raqamli to'lovlar rivojlanish ko'rsatkichlarini tahlil qilishda qo'llanildi.
- e. Iqtisodiy tahlil usuli – bank va FinTech hamkorligining iqtisodiy samaradorligi, xarajatlar va daromadlarga ta'siri baholandi.
- f. Ekspert baholash usuli – sohaga oid mutaxassislar fikrlarini umumlashtirish orqali amaliy xulosalar shakllantirildi.
- g. Abstraksiya va umumlashtirish usullari – olingan natijalar asosida umumiy xulosalar chiqarildi va ilmiy takliflar ishlab chiqildi.

## TAHLIL VA NATIJALAR

O'zbekiston moliya bozorida raqamli transformatsiya jarayonlari jadallashib, tijorat banklari tomonidan FinTech yechimlarini joriy etish faol ravishda kengaymoqda. Xususan, mobil banking xizmatlari, onlayn kreditlash, raqamli to'lov tizimlari va elektron hamyonlar aholining moliyaviy xizmatlardan foydalanish darajasini sezilarli oshirdi.

Tahlillar shuni ko'rsatadiki, banklar tomonidan taklif etilayotgan xizmatlarning katta qismi aynan FinTech texnologiyalari asosida amalga oshirilmoqda. Bu esa bank tizimining klassik modeldan raqamli platformaviy modelga o'tish jarayonini tezlashtirmoqda. Shu bilan birga, ayrim tijorat banklari FinTech startaplar bilan hamkorlikni yo'lga qo'yib, xizmatlar assortimentini kengaytirishga erishmoqda.

Biroq, mavjud hamkorlik asosan fragmentar xarakterga ega bo'lib, u tizimli va institutsional darajada to'liq shakllanmagan. Xususan:

1. banklar va FinTech kompaniyalari o'rtasida ma'lumot almashinuvi cheklangan
  2. API integratsiyasi yetarli darajada rivojlanmagan
  3. hamkorlik ko'proq qisqa muddatli loyihalar asosida amalga oshirilmoqda
- Bu holat moliya bozorida yagona FinTech ekotizimining shakllanishiga to'sqinlik qilmoqda.

Raqamli xizmatlar rivoji bank xizmatlarining takomillashuviga va moliya tizimining umumiy samaradorligiga bevosita ijobiy ta'sir ko'rsatmoqda. O'tkazilgan tahlillar natijasida aniqlanishicha, raqamli texnologiyalarni bank faoliyatiga keng joriy etish bir qator muhim iqtisodiy afzalliklarni ta'minlaydi. Xususan, raqamli xizmatlar asosida operatsion jarayonlarni avtomatlashtirish banklarning xarajatlarini sezilarli darajada qisqartirish imkonini bermogda, bu esa filiallar tarmog'ini optimallashtirish orqali amalga oshiriladi.

Bundan tashqari, raqamli platformalar orqali xizmat ko'rsatish tezligining oshishi mijozlar uchun vaqt tejalishini ta'minlab, xizmatlardan foydalanish samaradorligini oshirmoqda. Shu bilan birga, masofaviy bank xizmatlarining kengayishi natijasida geografik cheklovlar bartaraf etilib, yangi mijozlarni jalb qilish imkoniyatlari kengaymoqda. Bu holat banklarning mijozlar bazasini kengaytirish bilan birga, ularning bozor ulushini ham oshirishga xizmat qiladi.

Raqamli transformatsiya jarayoni bank daromadlarini diversifikatsiya qilish imkonini ham yaratmoqda. Ya'ni, yangi turdagi moliyaviy xizmatlar va mahsulotlar orqali qo'shimcha daromad manbalari shakllanib, banklarning moliyaviy barqarorligi mustahkamlanmoqda. Shu bilan birga, FinTech kompaniyalari tomonidan taklif etilayotgan innovatsion yechimlar bank xizmatlarini soddalashtirib, foydalanuvchi uchun qulay interfeys va tezkor xizmatlarni ta'minlash orqali mijozlar tajribasini sezilarli darajada yaxshilamoqda.



Natijada, raqamli xizmatlar va FinTech texnologiyalarining bank tizimiga integratsiyalashuvi banklar uchun nafaqat operatsion samaradorlikni oshiruvchi, balki bozorda raqobat ustunligini shakllantiruvchi muhim strategik omil sifatida namoyon bo'lmoqda.

Raqamli xizmatlar rivoji bank tizimining samaradorligiga sezilarli ta'sir ko'rsatib, moliya sektorida sifat jihatidan yangi bosqichni shakllantirmoqda. O'zbekiston bank sektorida so'nggi yillarda kuzatilayotgan tendensiyalar shuni ko'rsatadiki, masofaviy xizmatlardan foydalanuvchilar ulushi keskin oshib bormoqda. Jumladan, mobil va internet banking xizmatlaridan foydalanuvchilar sonining yil sayin ortib borishi bank operatsiyalarining asosiy qismi raqamli kanallar orqali amalga oshirilayotganini tasdiqlaydi. Shu bilan birga, naqd pulsiz to'lovlar ulushining oshishi moliya tizimida raqamlashtirish jarayonlarining chuqurlashib borayotganini ko'rsatadi.

Statistik tahlillar asosida aniqlanishicha, raqamli xizmatlar ulushi oshgan sari banklarning operatsion xarajatlari kamayish tendensiyasiga ega. Xususan, filial xarajatlari va operatsion xizmat ko'rsatish bilan bog'liq xarajatlari qisqarib, umumiy samaradorlik oshmoqda. Shu bilan birga, mijozlarga xizmat ko'rsatish tezligi sezilarli darajada ortib, bir operatsiyani bajarish vaqti an'anaviy usullarga nisbatan bir necha barobarga qisqargan. Bu esa mijozlar qoniqish darajasining oshishiga olib kelmoqda.

Mazkur jarayonlarni chuqurroq baholash maqsadida ekonometrik yondashuv qo'llanildi. Tadqiqot doirasida bank xizmatlari samaradorligi (Y) bilan raqamli xizmatlar ulushi ( $X_1$ ), FinTech hamkorlik darajasi ( $X_2$ ) va innovatsion investitsiyalar hajmi ( $X_3$ ) o'rtasidagi bog'liqlik o'rganildi:

$$Y = \beta_0 + \beta_1 X_1 + \beta_2 X_2 + \beta_3 X_3 + \varepsilon$$

Baholash natijalariga ko'ra,  $\beta_1 > 0$  bo'lib, bu raqamli xizmatlar ulushining oshishi bank samaradorligiga ijobiy ta'sir ko'rsatishini bildiradi. Shuningdek,  $\beta_2$  koeffitsienti ham musbat bo'lib, FinTech kompaniyalari bilan hamkorlik bank xizmatlari sifatini oshirish va mijozlar bazasini kengaytirishda muhim omil ekanligini tasdiqlaydi. Innovatsion investitsiyalarni ifodalovchi  $\beta_3$  koeffitsienti esa uzoq muddatli davrda daromadlarning barqaror o'sishini ta'minlashini ko'rsatadi.

Natijalar shuni ko'rsatadiki, raqamli xizmatlar ulushi 1 foizga oshganda bank xizmatlari samaradorligi o'rtacha 0,3–0,5 foizga oshadi. Shuningdek, FinTech hamkorlik darajasining oshishi mijozlar sonining ko'payishiga va xizmatlar sifatining yaxshilanishiga olib keladi. Bu esa bank daromadlarining diversifikatsiyalanishiga xizmat qiladi.

Bundan tashqari, tahlillar raqamli xizmatlarning kengayishi geografik cheklavlarni bartaraf etib, bank xizmatlaridan foydalanish imkoniyatlarini sezilarli darajada kengaytirayotganini ko'rsatadi. Natijada moliyaviy inklyuziya darajasi oshib, bank tizimining umumiy barqarorligi mustahkamlanmoqda.

Olib borilgan statistik va ekonometrik tahlillar raqamli transformatsiya hamda FinTech texnologiyalarining bank tizimiga integratsiyasi nafaqat operatsion samaradorlikni oshirish, balki banklarning uzoq muddatli raqobatbardoshligini ta'minlashda ham muhim strategik omil ekanligini asoslab beradi.

Moliya bozorida FinTech kompaniyalari va tijorat banklari o'rtasidagi hamkorlikni rivojlantirish jarayonida mavjud muammolarni bartaraf etish kompleks yondashuv

O'zbekiston moliya bozorida FinTech kompaniyalari va tijorat banklari o'rtasidagi hamkorlikni rivojlantirish jarayonida mavjud muammolarni bartaraf etish kompleks yondashuvni talab qiladi. Tadqiqot natijalariga asoslanib, quyidagi ilmiy asoslangan yechimlar taklif etiladi:

Jadval-1. O'zbekiston moliya bozorida FinTech kompaniyalarida mavjud muammolarni bartaraf etish kompleks yondashuv.

| Muammo:                                                                           | Ilmiy yechim:                                                                                                           | Takliflar                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                 |
|-----------------------------------------------------------------------------------|-------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|-----------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|
| FinTech faoliyatini tartibga soluvchi mexanizmlar yetarli darajada rivojlanmagan. | institutsional yondashuv asosida "moslashuvchan tartibga solish modeli (adaptive regulation)"ni amaliyotga joriy etish. | <ul style="list-style-type: none"> <li>FinTech kompaniyalari uchun alohida regulativ huquqiy maqom joriy etish</li> <li>Regulatory sandbox tizimini kengaytirish orqali innovatsion loyihalarni sinovdan o'tkazish</li> <li>Open banking va API almashinuvi bo'yicha yagona standartlar ishlab chiqish</li> <li>Raqamli moliyaviy xizmatlar uchun litsenziyalash jarayonlarini soddalashtirish</li> </ul> |
| Bank infratuzilmasi va FinTech yechimlari o'rtasida integratsiya darajasi past.   | "raqamli platforma ekotizimi modeli" amaliyotda shakllantirish.                                                         | <ul style="list-style-type: none"> <li>Bank tizimlarida API platformalarini joriy etish</li> <li>Core banking tizimlarini modernizatsiya qilish</li> <li>Malumotlar almashinuvi uchun yagona texnologik standartlar yaratish</li> <li>Bulutli texnologiyalar (cloud computing) va suniy intellektdan foydalanishni kengaytirish</li> </ul>                                                                |



|                                                                               |                                                                            |                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                        |
|-------------------------------------------------------------------------------|----------------------------------------------------------------------------|----------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|
| FinTech startaplar uchun moliyaviy resurslar yetarli emas.                    | “innovatsion moliyalashtirish mexanizmi” joriy etish.                      | <ul style="list-style-type: none"> <li>· Venchur fondlar va FinTech investitsiya platformalarini tashkil etish</li> <li>· Davlat tomonidan grant va subsidiyalarni ajratish</li> <li>· Banklar tomonidan FinTech startaplarni korporativ akseleratsiya dasturlari orqali qo'llab-quvvatlash</li> <li>· Xususiy sektor va xorijiy investorlarni jalb qilish</li> </ul>                  |
| IT va moliya sohasida malakali mutaxassislar yetishmaydi.                     | “inson kapitalini rivojlantirish modeli”ni FinTech sohasiga moslashtirish. | <ul style="list-style-type: none"> <li>· Universitetlarda FinTech va raqamli bank xizmatlari bo'yicha maxsus yo'nalishlar ochish</li> <li>· Banklar va IT kompaniyalar o'rtasida dual talim tizimini joriy etish</li> <li>· Xalqaro sertifikatlash dasturlarini kengaytirish</li> <li>· Mutaxassislar uchun doimiy qayta tayyorlash (reskilling) dasturlarini tashkil etish</li> </ul> |
| Aholining ayrim qatlamlari moliyaviy xizmatlardan to'liq foydalana olmayapti. | “mijozga yo'naltirilgan raqamli xizmatlar modeli” shakllantirish.          | <ul style="list-style-type: none"> <li>· Raqamli hamyonlar va mikroxizmatlarni rivojlantirish</li> <li>· Qishloq hududlari uchun soddalashtirilgan bank xizmatlarini joriy etish</li> <li>· Masofaviy identifikatsiya tizimlarini kengaytirish</li> <li>· Mijozlar uchun qulay va intuitiv UX/UI dizayn asosida xizmatlar yaratish</li> </ul>                                          |

Avvalo, FinTech faoliyatini tartibga soluvchi mexanizmlarning yetarli darajada rivojlanmaganligi ushbu sohaning barqaror rivojlanishiga to'sqinlik qiluvchi asosiy omillardan biri hisoblanadi. Ushbu muammoni bartaraf etishda institutsional yondashuv asosida moslashuvchan tartibga solish modeli (adaptive regulation) joriy etish zarur. Bu model FinTech kompaniyalari uchun alohida huquqiy maqom yaratish, innovatsion loyihalarni sinovdan o'tkazish uchun “regulatory sandbox” tizimini kengaytirish hamda ochiq bank tizimi (open banking) va API texnologiyalarini joriy etishni nazarda tutadi. Natijada, moliya bozorida innovatsiyalarni qo'llab-quvvatlovchi barqaror muhit shakllanadi.

Ikkinchi muhim masala bank infratuzilmasi va FinTech yechimlari o'rtasidagi integratsiya darajasining pastligi bilan bog'liq. Mazkur muammoni hal etishda raqamli platforma ekotizimi modelini shakllantirish muhim hisoblanadi. Ushbu model banklarning texnologik infratuzilmasini modernizatsiya qilish, API platformalarni joriy etish, ma'lumotlar almashinuvi uchun yagona standartlar yaratish hamda bulutli texnologiyalarni keng qo'llash orqali amalga oshiriladi. Bu esa bank va FinTech kompaniyalari o'rtasidagi uzviy integratsiyani ta'minlaydi.

Shuningdek, FinTech startaplar uchun moliyaviy resurslarning yetishmasligi innovatsion faoliyatni cheklovchi muhim omil sifatida namoyon bo'lmoqda. Ushbu muammoni hal etish uchun innovatsion moliyalashtirish mexanizmini joriy etish talab etiladi. Bunda venchur fondlar tashkil etish, davlat grantlari va subsidiyalarni kengaytirish, banklar tomonidan startaplarni qo'llab-quvvatlash dasturlarini rivojlantirish hamda xorijiy investitsiyalarni jalb qilish muhim ahamiyatga ega.

Bundan tashqari, IT va moliya sohasida malakali kadrlar yetishmovchiligi ham FinTech rivojiga salbiy ta'sir ko'rsatmoqda. Ushbu muammoni bartaraf etishda inson kapitalini rivojlantirish modeli asosida FinTech yo'nalishida mutaxassislar tayyorlash, dual ta'lim tizimini joriy etish, xalqaro sertifikatlash dasturlarini kengaytirish va doimiy qayta tayyorlash (reskilling) dasturlarini tashkil etish zarur.

Aholining ayrim qatlamlari tomonidan moliyaviy xizmatlardan to'liq foydalana olinmayotgani esa moliyaviy inklyuziya muammosini yuzaga keltirmoqda. Bu borada mijozga yo'naltirilgan raqamli xizmatlar modelini shakllantirish muhim hisoblanadi. Xususan, raqamli hamyonlar va mikroxizmatlarni rivojlantirish, qishloq hududlari uchun soddalashtirilgan bank xizmatlarini joriy etish, masofaviy identifikatsiya tizimlarini kengaytirish hamda foydalanuvchilar uchun qulay interfeysga ega xizmatlarni yaratish orqali ushbu muammoni hal etish mumkin.

Yuqorida keltirilgan muammolar va ularning ilmiy asoslangan yechimlari shuni ko'rsatadiki, bank va FinTech kompaniyalari o'rtasidagi hamkorlikni rivojlantirish ko'p darajali va kompleks yondashuvni talab qiladi. Institutsional, texnologik va iqtisodiy mexanizmlarning uyg'unlashuvi natijasida samarali raqamli moliya ekotizimi shakllanadi, bu esa mamlakat moliya tizimining barqarorligi va raqobatbardoshligini ta'minlashga xizmat qiladi.

## XULOSA VA TAKLIFLAR

Olib borilgan tadqiqotlar natijasida O'zbekiston moliya bozorida FinTech kompaniyalari va tijorat banklari o'rtasidagi hamkorlikni rivojlantirish zamonaviy raqamli iqtisodiyotning muhim yo'nalishlaridan biri ekanligi aniqlandi. Raqamli transformatsiya jarayonlari bank xizmatlarining sifatini oshirish, operatsion samaradorlikni kuchaytirish hamda mijozlarga qulay va tezkor xizmatlar ko'rsatishni ta'minlashda muhim omil bo'lib xizmat qilmoqda.



Tahlillar shuni ko'rsatdiki, FinTech texnologiyalarining bank tizimiga integratsiyalashuvi operatsion xarajatlarni qisqartirish, xizmatlar tezligini oshirish, mijozlar bazasini kengaytirish va daromadlarni diversifikatsiya qilish imkonini bermogda. Ekonometrik baholash natijalari ham raqamli xizmatlar ulushi, FinTech hamkorlik darajasi va innovatsion investitsiyalar bank samaradorligiga ijobiy ta'sir ko'rsatishini tasdiqladi.

Shu bilan birga, tadqiqot davomida bank va FinTech kompaniyalari o'rtasidagi hamkorlikning to'liq rivojlanishiga to'sqinlik qilayotgan qator muammolar ham aniqlangan. Jumladan, normativ-huquqiy bazaning yetarli darajada rivojlanmaganligi, texnologik integratsiya darajasining pastligi, innovatsion loyihalarni moliyalashtirish mexanizmlarining cheklanganligi hamda malakali kadrlar yetishmovchiligi ushbu sohaning rivojlanishini sekinlashtirmogda.

O'zbekiston sharoitida bank va FinTech kompaniyalari o'rtasidagi hamkorlikni rivojlantirish orqali raqamli moliya xizmatlari bozorini kengaytirish, moliyaviy inklyuziyani oshirish va milliy moliya tizimining raqobatbardoshligini mustahkamlash mumkinligi ilmiy jihatdan asoslab berildi.

Tadqiqot natijalari asosida quyidagi ilmiy-amaliy takliflar ishlab chiqildi:

1. Normativ-huquqiy bazani takomillashtirish

FinTech kompaniyalari faoliyatini tartibga soluvchi alohida huquqiy mexanizmlarni joriy etish, "regulatory sandbox" tizimini kengaytirish hamda open banking standartlarini ishlab chiqish zarur.

2. Raqamli infratuzilmani rivojlantirish

Bank tizimlarida API platformalarini keng joriy etish, core banking tizimlarini modernizatsiya qilish va bulutli texnologiyalarni qo'llash orqali texnologik integratsiyani kuchaytirish lozim.

3. Innovatsion moliyalashtirish mexanizmlarini kengaytirish

FinTech startaplar uchun venchur fondlar tashkil etish, davlat grantlari ajratish hamda xususiy investitsiyalarni jalb qilish mexanizmlarini rivojlantirish muhim.

4. Bank-FinTech hamkorlik modelini rivojlantirish

Kooperatsiya va klaster yondashuvi asosida bank va FinTech kompaniyalari o'rtasida uzoq muddatli strategik hamkorlikni yo'lga qo'yish zarur.

5. Kadrlar salohiyatini oshirish

FinTech yo'nalishida mutaxassislar tayyorlash, dual ta'lim tizimini joriy etish va xalqaro tajribalarni o'rganish orqali inson kapitalini rivojlantirish lozim.

6. Moliyaviy inklyuziyani kengaytirish

Raqamli hamyonlar, mikro xizmatlar va masofaviy identifikatsiya tizimlarini rivojlantirish orqali aholining barcha qatlamlari uchun moliyaviy xizmatlar imkoniyatlarini kengaytirish zarur.

7. Raqamli xizmatlar sifatini oshirish

Mijozlarga yo'naltirilgan xizmatlar yaratish, UX/UI dizaynni takomillashtirish va xizmatlar tezligini oshirish orqali banklarning raqobatbardoshligini kuchaytirish maqsadga muvofiq.

O'zbekiston moliya bozorida FinTech kompaniyalari va tijorat banklari o'rtasidagi samarali hamkorlikni rivojlantirish zamonaviy raqamli iqtisodiyot sharoitida strategik ahamiyat kasb etuvchi ustuvor yo'nalishlardan biri hisoblanadi. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, raqamli texnologiyalar asosida bank xizmatlarini transformatsiya qilish nafaqat operatsion samaradorlikni oshirish, balki moliya sektorining barqaror rivojlanishini ta'minlashda ham muhim omil sifatida namoyon bo'lmoqda.

FinTech texnologiyalarining bank tizimiga chuqur integratsiyalashuvi natijasida xizmatlar ko'rsatish tezligi va sifati oshib, mijozlarga yo'naltirilgan innovatsion mahsulotlar yaratish imkoniyati kengaymogda. Bu esa o'z navbatida banklarning raqobatbardoshligini kuchaytirib, moliya bozorida yangi biznes modellarning shakllanishiga olib keladi. Ayniqsa, open banking, API texnologiyalari, sun'iy intellekt va katta ma'lumotlar (big data) asosida xizmat ko'rsatish tizimlarining rivojlanishi bank va FinTech kompaniyalari o'rtasidagi o'zaro integratsiyani yangi bosqichga olib chiqmogda.

Shu bilan birga, tadqiqot shuni asoslab berdiki, FinTech va banklar o'rtasidagi hamkorlikni rivojlantirish faqat texnologik o'zgarishlar bilan cheklanib qolmasdan, balki institutsional va tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlarni takomillashtirishni ham talab etadi. Moslashuvchan tartibga solish (adaptive regulation), innovatsion moliyalashtirish mexanizmlari, raqamli infratuzilmani rivojlantirish va inson kapitalini mustahkamlash kabi omillar ushbu jarayonning muvaffaqiyatli amalga oshirilishida muhim rol o'ynaydi.

Bundan tashqari, FinTech texnologiyalarining keng joriy etilishi moliyaviy inklyuziyani oshirishga xizmat qilib, aholining turli qatlamlari uchun moliyaviy xizmatlardan foydalanish imkoniyatlarini kengaytiradi. Bu esa nafaqat bank tizimining rivojlanishiga, balki mamlakat ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotiga ham ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

#### Foydalanilgan adabiyotlar

- Arner, D. W., Barberis, J., & Buckley, R. P. (2016). The evolution of FinTech: A new post-crisis paradigm. *Georgetown Journal of International Law*, 47(4), 1271–1319.
- Gomber, P., Koch, J.-A., & Siering, M. (2017). Digital finance and FinTech: Current research and future research directions. *Journal of Business Economics*, 87(5), 537–580. <https://doi.org/10.1007/s11573-017-0852-x>



3. Lee, I., & Shin, Y. J. (2018). FinTech: Ecosystem, business models, investment decisions, and challenges. *Business Horizons*, 61(1), 35–46. <https://doi.org/10.1016/j.bushor.2017.09.003>
4. Philippon, T. (2016). The FinTech opportunity. National Bureau of Economic Research Working Paper, No. 22476. <https://doi.org/10.3386/w22476>
5. World Bank. (2022). FinTech and the future of finance. Washington, DC: World Bank Group.
6. International Monetary Fund. (2022). Digital financial services and financial inclusion. Washington, DC: IMF.
7. O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki. (2023). O'zbekiston bank tizimi rivojlanishi bo'yicha yillik hisobot. Toshkent.
8. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti. (2020). "Raqamli O'zbekiston – 2030" strategiyasi. Toshkent.
9. Ozili, P. K. (2018). Impact of digital finance on financial inclusion and stability. *Borsa Istanbul Review*, 18(4), 329–340. <https://doi.org/10.1016/j.bir.2017.12.003>
10. FSB (Financial Stability Board). (2019). FinTech and market structure in financial services. Basel: FSB.



## IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

*Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal*

**Ingliz tili muharriri:** Feruz Hakimov

**Musahhih:** Zokir ALIBEKOV

**Sahifalovchi va dizayner:** Oloviddin Sobir o'g'li

---

### 2026. № 4

---

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.  
Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot\_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot\_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

**Litsenziya raqami:** №046523. PNFL: 30407832680027

**Manzilimiz:** Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani  
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>

---